

QO'G'IRCHOQ TEATRINING ASL DURDONASI

Najmiddinova Sarvara

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti

Farg'ona mintaqaviy filiali

Qo'g'irchoq teatr aktyorligi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada teatrshunos olim, an'anaviy qo'g'irchoq teatrini o'rganib chiqqan, u asosida kitob yozgan Muhsin Qodirov haqida so'z yuritiladi. Yillar davomida u soha bo'yicha o'rganib, izlangan va bajargan ishlari haqida gap ketadi.

Kalit so'zlar: Teatr, tarix, davr, san'at, havaskorlik, qo'g'irchoq, an'anaviy, avlod, ko'mak, sanatshunoslik, xodim, faoliyat, ilmiy, ijtimoiy, tanqid, estetik, drama, musiqali.

Yillar, oylar, haftalar, kunlar, soatlar va soniyalar o'tgani sari har bir o'tgan soniyamiz tarixga aylanib, tarix zarvarolariga yozilib boraveradi. O'tgan kun o'tgan kunligicha qolaveradi. Lekin kun kelib, kelajakda, qaysidir o'tgan kun kelajagimiz uchun xizmat qilib qolishi mumkin va tabiiy hol. Deylik o'sha o'tmishda o'rgangan kasbimizning qaysidir bir jihati kelajakda bizga kerak bo'lib qolishi, yoki o'tmishda, yoshlikda olgan bilimimiz kelajakda bizga katta foyda keltirishi mumkin. Bizga foyda keltirmagan taqdirda o'sha bilim yoki ko'nikma kelajakda qaysidur yosh avlod vakili yoki vakillariga kerak bo'lishi aniq. Xullas tariximiz kelajagimizga ko'mak bera oladigan darajada degan fikrni olg'a surish to'g'ri qaror.

Hozirda quyida nomi tilga olinadigan, o'sha kelajakda kelajak avlodga foydasi tegadigan ma'lumotlarni, foydasi tegadigan san'at turini sinchiklab o'rganib, unga umrini baxshida etgan bir inson haqida so'z yuritiladi. Bu o'sha teatrshunos olim Muhsin Qodirov.

Muhsin Xalilovich Qodirov 1932-yilning 10-mart sanasida Shahrisabz shahrida tavallud topgan — teatrshunos olim. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1978-yil). San'atshunoslik doktori (1976-yil), professor (1980-yil).

1955-yilda Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini tugatgan. Qashqadaryo viloyat madaniyat boshqarmasida katta mutaxassis (1955—1957). Toshkentdagi San'atshunoslik institutida ilmiy xodim (1957—1958), katta ilmiy xolim (1961—1964, 1966—1976), ilmiy kotib (1964—1966), 1976-yildan bo'lim mudiri. 1962-yildan San'at institutida dars beradi (1996—1998 yillar institut rektori). Ilmiy faoliyati o'zbek xalqi tomosha san'atlari (an'anaviy teatr, raqs, sirk, maydon tomoshalari va bayramlar)ni o'rganishga bag'ishlangan. Muhsin Qodirovning "O'zbek xalq og'zaki dramasi" (1963), "Masxaraboz va qiziqchilar san'ati" (1971), "Xalq qo'g'irchoq teatri" (1972), "O'zbek teatri an'analari" (1976), "O'zbek xalq tomosha san'ati" (1981),

"Navoiy va sahna san'ati" (2000) kabi kitoblari alohida qimmatga ega. Muhsin Qodirov "Tanbur nolasi" (Farg'ona teatrida qo'yilgan), "Sehrlil uzuk" (Rus yosh tomoshabinlar teatrida, Kattaqo'rg'on, Qashqadaryo, Surxondaryo teatrlarida qo'yilgan), "Kenja qiz", "Sirli nay" (Respublika qo'g'irchoq teatrida), "Baxt qushi" (Muqimiy teatrida sahnalashtirilgan), "Susanbil" (Xorazm qo'g'irchoq teatrida qo'yilgan), "Samar va qand qissasi" (Samarqand viloyat qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirilgan) kabi pyesalar yozgan. "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan (2003).

Ta'kidlash joizki, Muhsin Qodirov yetakchi teatr munaqqidi bo'lgan. Uning ilmiy asarlari noyob bibliografik ishlar sirasiga kiradi. Muhsin Qodirovning 45 dan ortiq kitob va 80 ga yaqin ilmiy toplamlarda nashr etilgan maqolalar, qomuslarda nashr etilgan. 120 ta maqola, vaqtli matbuotda elon qilingan. 360 ta maqola va taqrizlar, 40 ga yaqin teleko'rsatuv va radio eshittirishlarda muallif va boshlo'vchi sifatida faoliyat korsatgan. Uning rahbarligida 23 kishi dissertatsiya himoya qilgan bolib, shundan sakkiztasi fan doktorlaridir. Muhsin Qodirov 22 ta pyesa va 3 ta tarjima muallifidir. U oz ilmiy tadqiqotlari natijasida teatr folklorshunosligiga asos soldi. U o'z maqolalari, kitoblari, ilmiy ma'ruzalari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan o'zbek teatrshunosligining mazkur yo'nalishiga fanlik maqomi uchun nazariy zamin yaratdi. 1980 – 1990-yillardagi ilmiy izlanishlari tufayli tomosha san'atlarini yaxlit va yalpi o'rganishdan iborat ilmiy yo'nalishni boshlab berdi. Aslida mazkur ilmiy yo'nalish Muhsin Qodirovning 1968-yilda chop etilgan "Alisher Navoiy va san'at" risolasidan boshlangan edi. Unda olim buyuk shoir yashagan davrdagi masxara, taqlid, badiiy haqgo'ylik, qissaxonlik, voizlik, qo'g'irchoq o'yin, afsungarlik, ko'z bog'lash kabi san'at turlarini ilk marotaba yaxlit holda tadqiq etgan edi. Muhsin Qodirov o'z faoliyatida zamonaviy teatr jarayoni, xususan, XX asr o'zbek teatrining tarixiy taraqqiyoti va uning hozirgi ahvoliga doir ma'lumotlar, dramaturgiya, rejissura, aktyorlik mahorati masalalariga bag'ishlangan yuzlab maqolalari hamda ma'ruzalarida o'z aksini topdi.

Ayniqsa, musiqali drama va qo'g'irchoq teatriga alohida e'tibor berib keldi. Zamonaviy teatr mavzular, muammolari hamma vaqt uning diqqat-e'tiborida bo'ldi.

"Osiyo Qo'g'irchoq teatri bu shunchaki ermak o'yin emas, balki bir qit'asi xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san'ati va albatta, tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixiy hodisadir" - degan edi teatrshunos olim Muhsin Qodirov

Muhsin Qodirov Qo'g'irchoqchilar elu-yurtga ozod bergan, g'am-kulfat keltirgan zamon zo'ravonlarini tanqid qilish hamda turmushdagi ayrim qoloqliklar, egriliklar ustidan kulish bilan xalq uchun zarur bo'lgan katta ijtimoiy va estetik vazifani bajarib kelganliklarini ham chuqur o'rganib chiqqan olim sanaladi.

Umuman olganda Muhsin Qodirov nafaqat Qo'g'irchoq teatri haqida, balki butun boshli san'at sohasi uchun o'zining kech ko'lamni foydali tomonlama hissasini qo'sha olgan kam sonli mutaxassislardan biri hisoblanadi. San'atga umrini baxshida etgan, san'at rivoji va kelajak avlodning kelajagi haqida o'z davrida chin dildan qayg'ura olgan juda ham kam sonli olimlardan biri hisoblanadi Muhsin Qodirov.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Teatr tarixi (M.Qodirov, S.Qodirova)

dsmi.uz sayti

Muhsin Qodirovning Vikipediya sahifasi